

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILI

*Phd., dotsent N.Xusanova**29-24 guruh talabasi M.Ismoilova**Toshkent to'qimachilik yengil sanoati instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda insoniyat oldida yuzaga kelgan global ekologik muammolar va ularning kelib chiqish sabablari, shuningdek, bu muammolarni yechimi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье дано информации о глобальных экологических проблемах, возникших в современном мире и причинах их возникновения, а также о решении этих проблем.

Annotation. This article provides information about the global environmental problems that have arisen in the modern world and the causes of their occurrence, as well as the solution of these problems.

Hozirgi kunda dunyoda sanoat va fan-texnika inqlobi davrida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu tezkor o'zgarishlar natijasida dunyoda bir-qancha ekologik muammolar yuzaga keldi. Bunday ekologik muammolarni global deyilishi sabab, bu ekologik muammolar sayyoramizda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga va tirik organizmlarning yashash sharoitiga o'z ta'sirini ko'rsatishidir.

Albatta inson tabiatni ifloslash bilan chegaralanib qolayotgani yo'q. Uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ham amalga oshirmoqda. Ko'pgina davlatlarda ekologik siyosat olib borilmoqda. Bizning davlatimizda ham atrof –muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi mustahkam yaxlit qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar"[1]. "Yer, yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur, ular davlat muhofazasidadir"[2] deya ta'kidlab o'tilgan.

O'tgan asrlardan boshlab yadroviy urushlar, global moliyaviy inqiroz, epidemiya, suv toshqinlari yoki cho'llanish kabi muammolarga qarshi kurashib kelinayotgan bo'lsa, yangi asr arafasida ozon qatlami yemirilib borayotgani ular safiga qo'shilib, u keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Global ekologik muammolardan biri ozon qatlami yemirilishidir. Ozon qatlami quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarni tutib qoluvchi yer yuzasining qalqoni hisoblanadi. Ma'lumki ultrabinafsha nurlar yer yuzasidagi tirik organizmlarga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insonlarda nurlanish oqibatida teri kuyishi va teri raki kabi kasalliklarini keltirib chiqaradi. Donli ekinlar hosildorligiga jiddiy zarar yetkazadi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab havoda Freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa 25 km uzoqlikdagi ozon qatlami (ozonosfera) ni yemira boshladi. Natijada "Ozon tuynugi" hosil bo'ldi. Ozon qatlami quyosh nurlari ta'sirida kislorod azot oksidi va boshqa gazlar ishtrokida ya'ni chaqmoq chaqishi momaqaldiroq, yashinlar natijasida hosil bo'ladi va to'planib boradi.

Hozirgi vaqtda Freon gazlaridan keng foydalanish, aviatsiya gazlari hamda atom bombalarini portlashi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda zarali moddalar va tutunlar chiqarilmoqda. Bu esa ozon qatlamiga to'planishiga imkon bermaydi.

Aviatsiya va raketa uchirilishi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda alyuminiy oksidi chiqarilmoqda. Chiqarilgan alyuminiy oksidi oq kukun ko'rinishida bo'lib quyosh nurlarini yer yuzasiga tushushiga to'sqinlik qiladi va oqibatida quyosh nurlari qaytishi kuzatiladi.

Raketalar atmosferani ifloslab qolmay ko'p miqdorda kislorod sarflaydi va ozon qatlamiga ham ta'sir etadi.

AQSHning "skaylob" stansiyasining orbitaga chiqargan Saturn-5 raketasi ionosferada kengligi 1800 km "tuynuk" hosil qilib, u 1,5 soatdan so'ng to'lgan[4].

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra bir vaqtning o'zida Saturn-5 ga o'xshash 125 ta raketa uchirilsa, yer yuzasini o'rab turgan ozon qatlamini yo'q qilib yuborish, yer yuzasidagi barcha tirik organizmlar nobud bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Antarktida va Avstraliyaning quyi hududlaridagi atmosfera havosida ozon tuynugi hosil bo'lib kengayib bormoqda. Bu holatni oldini olish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. 1981-yil 81-mamlakat olimlari mutaxasis va davlat arboblari qabul qilgan "Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Dekloratsiya" va 2000-yilga qadar Freon gazlaridan ishlab chiqarish mahsulotlarini kamaytirib borish tadbirlari belgilab beradi. Natijada so'ngi yillarda ozon tuynugining maydoni qisqarib bormoqda.

"Issiqxona samarasi".Keyingi yillarda atmosfera tarkibida karbonat angidrid gazlarining ortishi natijasida issiqxona samarasi vujudga keldi. Bunga saba sanoat korxonalarida yoqilg'i mahsulotlari ayniqsa, toshko'mirdan keng ishlatilishi, transport vositalarida yoqilg'ilardan foydalanilishi, o'rmonlarning kesilishi, o'rmon yong'inlaridir. Bular issiqxona samarasini jadallashuviga olib keladi. Ahvol shu tariqa davom etsa XX asrga kelib yer yuzasi harorati 1.5-4.5 gradusga ortishi mumkin. Buning oqibatida iqlimning o'zgarishi, ayniqsa cho'llanish jarayoni kuchayadi. Tabiat zonalari siljiydi, okean va dengizlar sathi ortadi. Muzliklar erishi va kamayishi kabi hodisalar ro'y beradi[3].

Chuchuk suv yetishmasligi muammosi. Suvning biosferada roli juda katta. U tirik va hayot manbai. Gidrosferada 1.5 mlrd kub kmdan ko'proq suv mavjud bo'lsada, shuning atigi 3% chuchuk suvlaridir. Chuchuk suv zahiralarining asosiy qismi qutbiy

muzliklardan to'plangan. Jamiyat rivojlangani sari chuchuk suv bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Gidrosferaning jami hajmining 3%ini tashkil etgan chuchuk suv iste'molida aholi, sanoat, qishloq xo'jaligi birlamchi rol o'ynaydi. Chuchuk suv yer yuzasi bo'ylab notekis taqsimlangan. Masalan Afrika aholisining 10%i muntazam chuchuk suv bilan ta'minlangan bo'lsa, Yevropada bu ko'rsatkich 95%ni tashkil etadi. Ayniqsa tropic Afrika mamlakatlarida toza ichimlik suv muammosi jiddiy muammo bo'lib turibdi.

Hozirgi kunda chuchuk suv yetishmasligi muammosi antropogen omillar ta'sirida yanada keskinlashib ketdi. Ba'zi sanoat, maishiy kominal xo'jalik va qishloq xo'jaligida keskinlashib ketdi. Ba'zi sanoat, maishiy komunal xo'jalik va qishloq xo'jaligida foydalanilgan suvlar qayta ishlanmasdan daryolarga oqizilmoqda. Buning oqibatida daryo suvi ifloslanishi bilan birgalikda turli yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Reyn, Dunay, Sena, Tibr, Missiipi, Volga, Dnepr, Dnestr, Nil, Ganga va boshqa daryolar juda ifloslanib ketgan daryolar hisoblanadi. Dunyo okeani ham ifloslanib bormoqda. Okean suvlari ayniqsa neft mahsulotlari bilan ifloslanmoqda. Dunyo okeanining 1/3 qismidan ortig'i neft pardasi bilan qoplangan. Neft pardasi bug'lanishni kamaytiradi, planktonlar rivojlanishi, okean bilan atmosfera o'zaro aloqalarini chegaralaydi. Neft bilan ko'p ifloslangan[5].

Yuqorida keltirilgan ekologik muammolarning bari antropogen ya'ni inson omili bilan bog'liq. Xo'sh bir nima qilishimiz kerak? Qanday choralar ko'rishimiz zarur?

Global muammo – ozon qatlamini himoya qilish barchamiz uchun oldimizdagi nihoyatda muhim bo'lgan vazifa. Ushbu vazifani ortga surish, befarqlik yoki uni shu bugun amalga oshirmaslik ona sayyoramizni halokatga mahkum etish bilan barobardir.

Darhaqiqat, o'zimiz yashab turgan ona yerni asrab, tabiat in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanish, nafas olayotgan atmosfera havosini musaffo saqlash har birimizning burchimizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 50- modda. 1992-yil 8-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 55-modda. 1992-yil 8-dekabr
3. A.Sattorov, Q.Allanov, B.Abdumo'minov "Global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlari va unga moslashish. 2019.
4. www.water.gov.uz
5. www.xs.uz